

GRAFIK VA GEOMETRIK SHAKLLARNING POETIK MATNLARDAGI MAZMUN XUSUSIYATLARI

Muhammadxon Hakimov

Filologiya fanlari doktori, professor.

Nargizaxon Xudoyberdiyeva


Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligi uchun yangi yo'naliш hisoblangan grafikli she'rlar lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilingan. Kompyuterda yaratilgan shakllarning poetik matn tarkibidagi o'ziga xos xususiyati misollar bilan yanada mustahkamlangan.

Kalit so'zlar: geometrik shakl, kompyuter texnologiyalari, grafik bezak, mavhum she'rlar, mualliflik belgisi.

Bugungu kunda texnologiyalar yordamida har qanday masalaning yechimi topilmoqda. Shuningdek, texnologiya kirib bormagan biror bir soha ham yo'q. So'nggi yillarda vizual poetik matnlarda ham texnologiyaning ta'sirini uchratish mumkin. Bu jihatdan turk va o'zbek tillarida kompyuter texnologiyalari natijasida vizual unsurlardan foydalangan holda vizual poetik matnlarning yorqin namunalari yaratilmoqda. Poetik matnning bunday turi turk tilida "Kompyuterda yaratilgan mavhum she'rlar" deb nomlansa, o'zbek tilida "Grafik bezak" deb yuritiladi. Buning o'ziga xos xususiyati shundaki, poetik matn semasi grafik shakllar orqali bir butunlikni tashkil qiladi. Matndan anglashilgan ma'no shaklda o'z imkoniyatlarini yanada ochib beradi. Bu turning asosiy xususiyati ham shakllar matnning qo'shimcha vositasi sifatida qo'llanilganlidadir. Biroq turk tilida ushbu turning shunday namunalarini uchratish mumkinki, faqat grafik shakllar iborat bo'lib hech qanday so'z yoki grafika ishlatilmaydi. Undagi butun mazmun faqatgina shakl orqali tushuniladi. Tarik Gunersel ijodiga oid bo'lган ushbu misollar faqat izohi bilan tushunilishga qartilgan. Chunki bir qarashda siz muallif bermoqchi bo'lган axborotni tushunishga qiyinalasiz va u turli xil izohlanishlarga olib kelishi mumkin. Turk tilidagi "Quyoshlar kilimi" deb nomlangan vizual poetik matn ana shunday turning yaqqol bir misoli bo'lib, u turli shakllardan tashkil topgan va kompyuter texnikasi yordamida yaratilgan she'rdir. "Gaia" iborasi yunon mifologiyasida yerning ramzi bo'lган va yerning timsoli bo'lган ma'buda sifatida tanilgan. Gesiodga ko'ra, Gaia hamma narsaning yaratuvchisi. U paydo bo'lган yer- ona, barcha xudolar va titanlarning onasi. Matnda Gaya nomi oldidagi belgi (Mualliflik belgisi) yer hamma narsaning yaratuvchisi sitafida qabul

qilingan Gaiaga tegishli ekanliginin bildiradi. Quyosh chiqqan va botgan har bir joy xudoning ishi ekanligi haqidagi fikr gilam naqshlari tarzida vizuallilikni hosil qiladi.



Ko'rib turganingizdek, agar ushbu misolning izohi keltirilmasa uni anglash ancha mushkul sanaladi.

Shuningdek, Turk poeziyasidagi kompyuterda yaratilgan vizual matnlar orasida "Xazina ortidan oquvchi sperma" ham o'z o'rniغا ega. Bu matn insonning paydo bo'lishini ko'rsatuvchi tasviri sherdır. Matn ramziy ishora bilan boshlangan bo'lib, unda juda ko'p yuqoriga qaratilgan o'qlar ota-ona kodlari sifatida tasvirlanadi. Turli yo'nalishga ishora qiluvchi o'qlar samarasiz va ishlamay qolgan spermatozoidlarni ifodalasa-da, spermalarning asosiy maqsadi juftlashish orqali yangi tananing tug'ilishiga vositachilik qilishdir. Ushbu tug'ulish lahzasi vizualizatsiya bilan ifodalanadi.

"Bobil minorasi" she'ri esa muqaddas kitob va rivoyatlarda tez-tez tilga olingan e'tiqodning vizual ifodasıdır. E'tiqodga ko'ra, Bobil minorasi xudoga erishish uchun qurilgan inshoatdir. Tavrot, Injil, Qur'onda tilga olingan minora odatda insonning nomukammalligini va yaratuvchining mukammalligini ifodalash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, din olimlaridunyodagi yuzlab tillarning kelib chiqishini tushuntirish uchun Bobil minorasi haqida gapirishadi. Matnda timsollar bilan yaratilgan shakl tillarning kelib chiqishini ifodalovchi sifatida talqin qilinishi mumkin. Shuningdek, Bobil minorasining dunyoning yeti mo'jisidan biri sanalishi bilan she'rdagi shakl o'rtasida bo'sh joy qo'yilgan holda yaratilgan 8 raqami o'rtasida ham bog'lanish mavjud. Bu o'rinda "Bobil minorasi"ning yozilishi ham sakkizinchı mo'jiza sifatida e'tirof etilayotgan bo'lsa ajab emas. Bobil minorasining qurilganligiga ming yillar

o'tgan bo'lsa ham, Yaratganning komilligi oldida insonning nomukammal xatti-harakati davom etmoqda. Bu ma'no haqida odamlarni o'ylantirish uchun adresant tasviriylikdan foydalanadi. Xuddi shundan tasviriylik "Xirosima minorasi" vizual poetikasida ham qo'llaniladi. Tinchlik monumenti sifatida qurilgan yodgorlik she'riyatdagi timsollar bilan yaratilgan.

Ushbu turdan ko'zlangan maqsad xabarni so'z ishlatmasdan, shakllar bilan eng ajoyib tarzda ifodalaydi. Shakl va predmetning sahifada o'ziga xos ma'no bilan paydo bo'lishi ma'no zichligini ham olib keladi. Ba'zan so'z bilan ifodalamoqchi bo'lган his-tuyg'u va fikrni ifodalashning hojati yo'q.

"Harbiy to'ntarish" deb nomlangan tasviriy she'rda qo'llanilgan yo'l belgisi harbiy to'ntarish natijasida jamiyatda va mamlakatda yuzaga kelgan qisqarish va zerikishni eng aniq shaklda ifodalaydi. Adresat adresant bermoqchi bo'lган semantikani bir qarashdayoq tushunadi.

"Yangi alifbo" she'rida yuqoriga yoki pastga cho'zilgan harflar olib tashlangan va "o'ta uchli harflar ham taqiqlangan" deb so'z erkinligini cheklanganini aytadi.

"Bir xil xalq" matni esa qora to'rtburchakdan iborat. Ko'p millatli dablatlarda bir xil struktura ko'plab elementlarning yonma-yon yashashi natijasida paydo bo'ladi. Turkiyada bo'lagani kabi tarixiy va geografik birlikdan kelib chiqqan bir xil millat turli un surlarning birlashishi bilan shakllanadi. Vizualda to'rtburchak sifatida ifodalangan bu bir xillik makonning birligidan kelib chiqadi. Bitta to'rtburchak ichida tomonlarning birlashishi natijasida yogona e'tiqod hosil bo'ladi.

Hozirgi zamondagi ishq va muhabbat munosbatlar shubha ostiga olingan "Munosabatlar davri bormi" deb nomlangan matn nuqta va vergullardan iborat. Ayniqsa, yosh avlod o'rtasida o'zaro munosabatlar keskinlashganda qo'llaniladigan "munosabatga nuqta qo'yish" yoki "munosabatga vergul qo'yish" iborasi kinoya bilan ishlataladi. Nuqtalar va vergullar bilan davom etib boruvchi munosbatlarning charchoq va noaniqliliqi vizual tarzda ifodalilanadi. Nuqta va vergullar ketma-ketligi, ma'lim ma'noda, tugaydigan munosabatlar va doimiy qiziqishning aniq ko'rsatkichidir.

"Ichki atirgul" deb nomlangan navbatdagi vizual matnda esa adresantning ichki dunyosini talqin qilish mumkin. ichkariga qargan kichik uchburchak hosil qilgan kvadrat va so'roq belgilaridan yasalgan o'zak qismini modernizmning tanqidi sifatida talqin qilish mumkin. hamma narsa mexanik bo'lib, go'zallik yo'qolib, tabiiylik iste'mol qilinadigan davrda atirgul ham mexanik shaklga ega. Bu shakldagi atirgul shoir uchun go'zallik emas, balki introversiyaning konkret ko'rsatkichidir. U tashqi tomonidan ochilgan haqiqiy atirgul o'rniga introvert haqida shubha ostiga olinadigan ma'no yaratadi.

Terrorizmga e'tibor qaratib, "Biz yo'q qila olmaganlar orasida siz ham bormisiz?" vizual matni jamiyatni qonga botirgan terroristik haraktlarga bag'ishlanadi.

Terrorizmning halokat va vayron bo'lishi so'zlari qora rangga bo'yash va ma'nosiz qilish bilan ifodalaniladi. Terrorizmning halokatli tasiri qora rangga bo'yalgan va qoplangan harflar va bo'g'lnlarda naiq ifodalangan. Terrordan holi bo'lish mumkin bo'lgan juda oz sonli hududlar o'z-o'zidan mantiqiy emas. Terrorizmning har bir sohadagi ta'siri jamiyatda bo'linish va yo'qotishlarni keltirib chiqaradi. Matnda esa aynan mana shun narsa urg'u beriladi.

Gunersalning "Nyu-York" vizual poeziyasi esa 11-sentabr kuni Amerikada yuz bergen hujum haqidagi ma'lumotlarni yetkazib berish maqsadida yartilgan. 11-sentabr kuni Amerikning ramziy binolari bo'lgan egizak minoralarga qilingan hujum dunyoda ko'p narsalarnin o'zgarishiga olib keldi. Butun dunyo terrorizmga qarshi xavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqayotgan bir paytda hujum sodir etilgan Nyu-York uchun yangi davr boshlandi. U endi oldingilariga o'xshamagan, kamchiliklarsiz yangi davrni boshlaydi. Matnda "newer-york" tarzida ifodalangan bu holat terror sabab bo'lgan yangi holatni tasavvur qilish uchun berilgan.

*Sevinçle "Bir dakika," diyor,
gidip oradaki polise beni gösteriyor,
belli ki izin alıyor

sonra
gelip kıvançla çeviriyor:
"Barış."*

*-Dokun şu düğmeye,
barış için
Bas, bu savaş bitsin.

-Bu düğme mi?*

*Bi' düğmeye bastım sadece
Hiroshima üzerinde.*

"Tugma" deb nomlangan ushbu poetik matnda ham kompyuter texnologiyasi natijasida hosil qilingan yumaloq va qora tasvir "tugma" tarzida ifodalanadi. Muallif bu matnda o'sha paytdagi his-tuyg'ularini aks ettirish uchun bir so'z bilan chekinishni xohlamaydi. Bunday holda o'sha hissiy holat bo'lgan misralarda yo'jim bo'lib, misrani bo'sh qoldiradi. Yoki misraga tegishli tinish belgilarini qo'yadi. Bu satrlarni bo'sh qoldirish deb ataladi. Yuqoridagi "Tugma" she'rida misralar orasida bo'shliq bordek. Bu Xirosimaga tashlangan atom bombasiga ishora qbo'shliq matndagi kishining

tugmani bosish yoki bosmasligi haqidagi ikkilanishni ifodalasa, ikkinchi va kattaroq bo'shliq o'zi bilmagan holda yuzaga keladigan noxush holatga afsuslanishni ifodalarydi.

She'riyat shoirning ifodaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida o'z imkomniyatlarini muttasil rivojlantirib, yangilab boradi. Vizual poetik matnni shu davrning zamонавиy imkoniyatlaridan biri sifatida ham ko'rish mumkin. Tarik Gunersel ham adresatga pragmatik nuqtayi nazardan murojaat qilib, axborotni lison vositasida emas, aksincha, nolisoniy vositalar yordamida taqdim qilishni afzal biladi. Gunersel ijodining boy namunalari joy olgan va an'anaviy she'riyatni inkor qilgan butur turk adabiyotida "konkret she'riyat" nomi bilan yuritiladi. His-tuyg'ularini so'z bilan ifodalash orqali cheklanib qolishlikni istamagan adresant kompyuter texnologiyasi natijasida axborotni butunligicha arrestga havola etadi. Bu esa o'quvchiga berilgan mavzu doirasiga o'zi mushohada qilishga choraydi. Shu bilan birgalikda konkret she'riyatning ko'p o'qishli tuzilishga ega bo'lishi biroz ikkilanishlarga ham olib kelishini aytib o'tish joiz.

O'zbek tilida ham grafik vositalar yordamida ifodalangan bir necha poetik matnlar bo'lib, ularning ayrimlari turk tili bilan mutanosiblikni anglatса, bazilari bir-biriga qarama-qarshi mazmunda ishlatiladi. Geometrik shakllardan foydalanib, vizuallilikning o'ziga xos janrini hosil qilgan ijodkorlardan biri Faxriyor sanaladi. Uning "Geometrik bahor" deb nomlanuvchi she'ri tamomila grafik she'r turiga mansubdir.

I

- (Тўртбурчак ва шип-шийдам) боғларга қайтади баҳор
- ▷ (учта бурчаги) билан.
Боғ аслида Δ (икки баҳор) дан иборатдир,
▷ – бири қайтиб келган,
 Δ – бири қор остида қишлигани баҳор.
Бир-биридан чангланган икки гул янглиғ улар бир-бирига қовушганида (☒) кўкаради боғ (■)*.
- Баҳор боққа майсанинг тили (\blacktriangle) билан кирап билдиримай
↳ (илон) нинг оғзида жаннатга кирган шайтон сингари.
- Унинг учи игнадай ўткир учбурчакнинг таянч тўғри чизиги орта йўл бермас,
учбурчак
→ (кўрсатиш чизиги)дай фақат олдинга юрар.

“Faxriyor bu asarida rassomchilik va she’riyat o’rtasidagi qardoshlikni yana ham mustahkamlashga intiladi: turli shakllarni (ular ma’lim darajada rassomlikka xos unsurlar deb qarasa bo’ladi) so’zga ko’makchi etib saylanadi. Shakllar so’zning imkoniyatlarini to’latadi, sezgilarimizga ta’sir etadi va pirovardida tasavvurimizda rangin va hassos surat joylanadi.

Kubizm yo’nalishidagi surat ma’lum geometrik figuralarni yodga solib, musavvir olamni shu shakllar vositasida anglashga urinadi. Bu yo’nalishning yetuk namoyondalari sifatida P.Pikasso, J.Gris kabi musavvirlar e’tirof etiladi. Kubizmning ifodaviy imkoniyati benihoya cheksiz esa-da, rassomlar uchun kartinada borliqning real xususiyatlarini aks ettirish chegaralab qo’yilgandi. Shu bois kubistlar tasviridagi shakl aniq estetik predmet sifatida ko’rilmaydi.”¹

Bir qarashda shaklbozlikdan boshqa narsa emasdek tuyulgan ushbu matn o’z ichiga chuqur ma’noni yashirgan bo’lib, geometrik shakllar orqali adresant bermoqchi bo’lgan axborot yana ham faollashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Асадуллаев А. ва бошқалар. Бадиий санъат жозибаси. Тошкент: Янги аср авлоди, 2005, 21 б.
2. Жуманиёзов Р. Эски ўзбек ёзуви. Тошкент: Ўқитувчи, 1989, 243 б
3. Мамажонов А. Текст лингвистикаси, Тошкент, 1989 -Б5.
4. Мамажонов А. , Абдулаттоев М. Матн назарияси. -Фаргона 2016. Б5.
5. Qurbanova M., Yo’ldoshev M., Matn tilshunosligi. –Toshkent: Universitet, 2014. 5-bet
6. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya –Toshkent: 2019. 21-bet
7. Халилова М. Ўзбек тили стлистикаси асослари. Фаргона. 2009.